

## **FURQAT IJODIDA TABIAT TASVIRI: POETIK OBRAZ VA RUHIY KONSEPSIYA**

**Boyatov Oybek Maxmudjon o‘g‘li,**  
*University of Business and Science  
Tillar kafedrası dotsenti v.b. filologiya  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodida tabiat tasviri masalasi kompleks tahlil qilingan. Shoir lirikasida tabiatning badiiy-estetik, tasavvufiy va psixologik funksiyalari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Furqat, tabiat tasviri, lirika, poetik obraz, tasavvuf, hijron, metafora, ramz, peyzaj, badiiy tafakkur.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the representation of nature in the works of Zokirjon Xolmuhammad oğlu Furqat. It elucidates the artistic-aesthetic, Sufi, and psychological functions of nature within the poet’s lyrical poetry.

**Keywords:** Furqat, representation of nature, lyric poetry, poetic image, Sufism, separation, metaphor, symbol, landscape, artistic thinking.

**Аннотация.** В данной статье проводится комплексный анализ проблемы изображения природы в творчестве Зокирджона Холмухаммад угли Фурката. Раскрываются художественно-эстетические, суфийские и психологические функции природы в лирике поэта.

**Ключевые слова:** Фуркат, изображение природы, лирика, поэтический образ, суфизм, разлука, метафора, символ, пейзаж, художественное мышление.

**Kirish.** XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti tarixida Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning lirikasida inson ruhiyati, ishq, hijron, vatan sog‘inchi bilan bir qatorda tabiat tasviri ham muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda qayd etilishicha, Furqat she‘riyatida tabiat nafaqat tashqi manzara, balki inson ruhiy kechinmalarining ifodachisi falsafiy va tasavvufiy ramz sifatida xizmat qiladi [1.59].

Mumtoz adabiyotda tabiat gul va husn, bulbul va oshiq, bahor va visol, kuz bilan hijron kabi ramziy tizim orqali ifodalangan. Furqat ana shu an’anani davom ettirgan holda, uni yangicha ruhiy mazmun bilan boyitadi. Shoir she‘riyatida tabiat ichki kechinmaning tashqi ifodasidir. Masalan,

*Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar,  
Do‘stlar, g‘animatdur, sayr eting gulistonlar.[2. 24]*

Shoir “navbahor” va “zimiston” kabi tabiat hodisalarini tilga olarkan, aslida faqat fasllar almashinuvi haqida gapirmaydi. U tabiatdagi o‘zgarish orqali inson ruhiyatidagi va jamiyat hayotidagi yangilanish jarayonini ifodalashga intiladi. Baytda tabiat tasviri passiv manzara emas, balki faol badiiy vosita sifatida ishlatilgan. Shoir bahorning kelishini oddiy hodisa sifatida emas, balki hayotiy jarayonning muhim burilishi sifatida tasvirlaydi. Qishning ketishi esa faqat fasliy o‘zgarish emas, balki

ruhiy zulmatning chekinishidir. Baytda “navbahor o‘ldi” degan ifoda alohida e‘tiborga loyiq. Odatda bahor “keldi” yoki “yetib keldi” tarzida tasvirlanadi. Furqat esa “o‘ldi” (bo‘ldi) shaklini qo‘llab, bahorning kelishini mukammal voqea, yakunlangan jarayon sifatida ifodalaydi. Bu esa shoirning poetik fikrlashida tabiat hodisalari muayyan dramatik mazmun kasb etishini ko‘rsatadi.

“Bahor” fasl emas, balki umid va ruhiy uyg‘onish timsoli hisoblanadi. Baytda ikki asosiy tushuncha “Navbahor” (bahor), “Zimiston” (qish) timsollari o‘zaro zidlangan. Bu qarama-qarshi tushunchalar orqali shoir antitezaga asoslangan poetik model yaratadi. Bahor – hayot, uyg‘onish, iliqlik. Qish esa sovuqlik, turg‘unlik, o‘limsimon holat. “ketibon zimistonlar” ifodasi orqali qish faqat fasl sifatida emas, balki salbiy ruhiy holat timsoli sifatida talqin qilinadi.

Baytdagi yana bir muhim jihat – “Do‘stlar” murojaatidir. Bu so‘z orqali shoir o‘z tuyg‘ularini faqat shaxsiy kechinma sifatida emas, balki umumiy quvonch sifatida ifodalaydi. Tabiatdagi uyg‘onish hamma uchun baravar quvonch manbai ekanini ta’kidlaydi. Shu jihatdan bu bayt kollektiv hissiyot poetikasini ham namoyon etadi.

**Muhokama va natijalar.** Shoir qish faslini “zimistonlar” deb ko‘plik shaklida ishlatadi. Bu grammatik shakl oddiy stilistik vosita bo‘lib qolmay, balki ma’no chuqurligini oshiradi. Go‘yo uzoq davom etgan sovuq davrlar, turg‘unlik, hayotdagi og‘ir kunlar ortda qolayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Natijada bahorning kelishi nafaqat fasliy, balki ruhiy najot sifatida qabul qilinadi. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, mazkur baytda psixologik parallelizm usuli juda aniq ko‘rinadi. Tabiatdagi jarayon bilan inson qalbidagi jarayon bir-biriga uyg‘un holda tasvirlanadi. Bahorning kelishi — qalbning uyg‘onishi, qishning ketishi esa iztirob va g‘amning chekinishidir. Shuningdek, bu misralarda mumtoz adabiyot an’anasiga xos fasl poetikasi ham seziladi. Sharq she’riyatida bahor ko‘pincha hayot, ishq va yangilanish timsoli sifatida talqin qilingan. Furqat esa ana shu an’anani davom ettirib, uni o‘z davri ruhiga mos tarzda boyitadi. Natijada bahor obrazi nafaqat estetik, balki falsafiy mazmun kasb etadi. Bir qarashda bu oddiy poetik usuldek tuyulishi mumkin, biroq aslida takror misraning emotsional ta’sirini kuchaytiradi. Go‘yo shoir bahorning kelganiga o‘zi ham yana bir bor ishonch hosil qilmoqchi bo‘lgandek taassurot uyg‘otadi. Bu esa baytga ichki lirizm va quvonch ohangini bag‘ishlaydi. Furqat tabiatni tasvirlash orqali inson hayotining muhim falsafiy qonuniyatini ifodalaydi. Har qanday zimiston ortidan navbahor keladi. Bu fikr shoirning hayotga optimistik qarashini, kelajakka ishonchini ifodalaydi. Tabiatdagi abadiy aylanish qonuni inson ruhiyati va jamiyat hayotiga ham tatbiq etiladi.

*Subhidam tushub shabnam bo‘ldi sabzalar hurram,  
Gul uza tomib kam-kam yog‘di abri naysonlar.*

Mazkur baytni mutolaa qilgan zahoti o‘quvchi tasavvurida nihoyatda nozik va latif bir manzara gavdalanadi: tong nafasi, maysalar ustidagi shabnam, gul barglariga asta-sekin tomayotgan yomg‘ir. Ammo bu tasvirni faqat tashqi manzara sifatida qabul qilish uning badiiy qiymatini to‘liq anglashga yetarli emas. Furqat bu yerda tabiatni ruhiy-estetik holatning ifoda vositasi darajasiga ko‘targan. Avvalo, baytning boshlanishidagi “subhidam” (tong nafasi) iborasi alohida e‘tiborga loyiq. Tong — mumtoz adabiyotda ko‘pincha yangilanish, poklanish va ruhiy uyg‘onish ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan qaraganda, shoir tasvirlayotgan manzara oddiy tong emas, balki ichki dunyoning yangilanish lahzasidir. “Shabnam tushub sabzalar hurram bo‘ldi” misrasi tabiat va ruhiyat uyg‘unligining yorqin ifodasidir. Shabnamning maysalarga tushishi natijasida ularning “hurram” (xush, yashnab ketgan) bo‘lishi — bu bevosita jonlanish manzarasi. Lekin baytni quyidagicha talqin qilinishi mumkin. Shabnam – rahmat va ilohiy inoytat, sabzalar – hayot, qalb, inson ruhi sifatida qaraladi. Tabiatdagi hodisa orqali inson qalbining uyg‘onishi ifodalanmoqda. Ikkinchi misrada tasvir yanada noziklashadi. Bu yerda shoir juda muhim poetik usuldan foydalanadi — sekinlik va davomiylik effekti. “Tomib kam-kam” iborasi yomg‘irning shiddatli emas, balki nihoyatda mayin, deyarli sezilmaydigan tarzda yog‘ayotganini bildiradi. Bu esa butun baytga muloyimlik va lirizm ohangi beradi. Bahor yomg‘irini “abru nayson”ga o‘xshatadi. Sharq she‘riyatida bu o‘xshatish ko‘pincha baraka, hayot manbai, ilohiy marhamat ramzi sifatida talqin qilinadi. Furqat ham shu an’anani davom ettirgan holda, uni o‘z poetik dunyoqarashi bilan boyitadi. Shoir baytda shunday ketma-ketlikni: shabnam tushadi, maysalar yashnaydi, yomg‘ir tomadi kabi voqelarni qo‘llaydiki, tabiatni jonlantirib o‘quvchini go‘yo shu manzaraga olib kiradi. Shoir baytda tasavvufiy timsol sifatida shabnamni ilohiy nurga, yomg‘irni Haq rahmatiga, gulni qalbg qiyoslaydi. Natijada tabiat manzarasi ruhiy kamolot jarayonining ramziy ifodasiga aylanadi. Shoir g‘azalni keying baytida tabiatni shunchaki tasvirlamaydi, balki uni insoniyashtiradi, ya’ni tabiat hodisalariga insoniy xususiyatlar yuklaydi. Bu esa uning poetikasiga xos bo‘lgan muhim belgidir.

*Nastaran yuvib yuzni, yosumon to‘zib o‘zni,  
Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar.*

Nasratin go‘zallik timsoli, yuzni yuvish esa poklanish demakdir. Tabiat orqali go‘zallikning uyg‘onishi ifodalanmoqda. Baytda uchta gul obrazi ketma-ket beriladi: nastaran, yosuman, nargis. Bu ketma-ketlik tasodifiy emas. Mening ilmiy qarashimga ko‘ra, bu uchlik bir butun poetik harakat tizimini tashkil etadi. Nastarin – poklanish, yosuman – bezanish, nargis – uyg‘onish va kuzatish kabi ma’nolarda ifodalangan. Shoir tabiatni emas, balki kutuv jarayonini tasvirlayapti. Tabiat go‘yo bir uchrashuvga tayyorlanmoqda. Ayniqsa, “yuvib yuzni” iborasi chuqur ma’noga ega. Bu faqat

shabnam bilan namlanish emas, balki poklanish, yangilanish ramzidir. Tabiat o‘zini go‘yo ruhiy jihatdan tozalayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Bu yerda tasvirlangan holat — tonggi lahza. Ya’ni tabiatning uyg‘onish nuqtasi. Tong esa mumtoz she’riyatda har doim boshlanish, yangilanish, umid ramzi sifatida talqin qilingan. Furqat bu an’anani davom ettirgan holda, uni o‘ziga xos tarzda boyitadi. Chunki uning tong manzarasi oddiy vaqt ifodasi emas, balki kutishning boshlanish nuqtasidir. Makon jihatidan esa baytda bog‘, gulzor tasviri seziladi. Ammo bu makon real geografik hudud emas. ruhiy makon, ya’ni qalb ichidagi manzara. Shu sababli gullarning harakati inson kechinmalari bilan to‘liq uyg‘unlashadi.

*Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,  
Sarv gul uza doim tortar ohu-afg‘onlar.  
Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin,  
G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.*

Ijodkorning tabiatni oddiy tasvir darajasidan chiqarib, uni to‘liq ruhiy kechinmaga aylantira olganidir. Bu yerda tabiat ko‘rinmaydi, balki eshitiladi, seziladi va his qilinadi. Shoir o‘quvchini tovushlar olamiga olib kiradi. Bu tovushlar dekorativ unsur emas, balki ruhiy holatning akustik ifodasidir. Qumrining “ku-ku”si va bulbulning “chah-chah”i tashqi quvonch emas, balki ichki jo‘shqinlik va yashirin iztirobning tovushga aylangan shaklidir.

**Xulosa** qilib aytganda, Furqat ijodida tabiat tasviri oddiy peyzaj darajasidan ancha yuqori ko‘tarilgan. Furqat tabiatni tasvirlamaydi, balki uni his qiladi va his qildiradi. Shu bois uning she’rlaridagi tabiat manzaralari tashqi go‘zallikni aks ettirish bilan cheklanmay, inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib beruvchi vositaga aylanadi. Furqat she’riyatida tabiat – bu mustaqil obyekt emas, balki inson ichki olamining aks-sadosidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Jo‘rayeva N. Furqat lirikasida bahor tasviri // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodologik jurnali. 2025-yil 60-son. 259-bet
2. Furqat. Ishqingda kuyub jono. Nashrga tayyorlovchi Jabborov N. – Toshkent: Adabiyot. 2021-yil. 24-bet
3. Фурқат ва жади́дчилик / “Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал – методологик муаммолар” мавзuidaги Республика илмий – назарий анжумани материаллари. – Тошкент: Академия, 1998. –Б.180-183.
4. Фурқатнинг ўзбек миллий уйғониш даври адабиёти тараққиётидаги ўрни / Фурқат ижоди муаммолари. Қўқон, 2010. –Б.10-20.
5. Furqatning so‘z xususidagi qarashlari va so‘z qo‘llash mahorati. /O‘zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Toshkent, 2021. - B.57-62.